



HUDUDIY IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDA IQTISODIY DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA

Marksov Abror Xurmatbek o‘g‘li

Ma‘mun universiteti Biznesni boshqarish kafedrasida o‘qituvchisi

Email: marksov_abror@mamunedu.uz

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol14_iss2/802

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xorazm viloyati misolida hududiy iqtisodiy o‘shni ta‘minlashda iqtisodiy diversifikatsiyaning tutgan o‘rni va ahamiyati ilmiy-tahliliy jihatdan o‘rganilgan. Viloyat iqtisodiyotining hozirgi holati, sohaviy tarkibi, asosiy muammo va kamchiliklari baholangan. Iqtisodiy diversifikatsiya nazariyasi, xalqaro tajriba va Xorazm viloyatiga xos tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar asosida diversifikatsiya strategiyasining ilmiy asoslari ishlab chiqilgan. Turizm, agrosanoat, tekstil, energetika va axborot-texnologiyalari sohalarida diversifikatsiya yo‘nalishlari bo‘yicha tavsiyalar shakllantirilgan. Tadqiqot natijalari viloyatda barqaror iqtisodiy o‘shni ta‘minlash uchun kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy diversifikatsiya, hududiy iqtisodiyot, Xorazm viloyati, iqtisodiy o‘sh, investitsiya, turizm, agrosanoat.

Аннотация

В данной статье на примере Хорезмской области научно и аналитически исследуется роль и значение экономической диверсификации в обеспечении регионального экономического роста. Оценивается текущее состояние региональной экономики, её отраслевая структура, основные проблемы и недостатки. Научная основа стратегии диверсификации разработана на основе теории экономической диверсификации, международного опыта и природных, экономических и социальных факторов, специфичных для Хорезмской области. Сформулированы рекомендации по направлениям диверсификации в сферах туризма, агропромышленности, текстильной промышленности, энергетики и информационных технологий. Результаты исследования указывают на необходимость комплексного подхода к обеспечению устойчивого экономического роста в регионе.

Ключевые слова: экономическая диверсификация, региональная экономика, Хорезмская область, экономический рост, инвестиции, туризм, агропромышленность.

Abstract

This article scientifically and analytically studies the role and importance of economic diversification in ensuring regional economic growth using the example of Khorezm region. The current state of the regional economy, its sectoral structure, main problems and shortcomings are assessed. The scientific basis of the diversification strategy is developed based on the theory of economic diversification, international experience and natural, economic and social factors specific to Khorezm region. Recommendations are formulated on diversification directions in the fields of tourism, agro-industry, textile, energy and information technologies. The results of the study indicate the need for a comprehensive approach to ensuring sustainable economic growth in the region.

Key words. economic diversification, regional economy, Khorezm region, economic growth, investment, tourism, agro-industry.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hududlarni mutanosib va barqaror rivojlantirish, ularning ichki salohiyatidan samarali foydalanish hamda iqtisodiy faollik darajasini oshirishdan iborat. Ayniqsa, hududlar iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan modernizatsiya qilish, sanoatlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, xizmatlar sohasini kengaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytirish masalalari davlat siyosatining ustuvor vazifalari sifatida belgilangan [1].

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish, ishlab chiqarish quvvatlarini hududlar kesimida oqilona joylashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda mahalliy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan [1]. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda iqtisodiy diversifikatsiya alohida ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy diversifikatsiya - bu hudud iqtisodiyotining ayrim tarmoqlarga yuqori darajada qaramligini kamaytirish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarini kengaytirish, yangi iqtisodiy faoliyat turlarini shakllantirish hamda iqtisodiy tizimning tashqi va ichki xatarlarga chidamliligini oshirish jarayonidir. Diversifikatsiyalashgan hududiy iqtisodiyot odatda bozor kon‘yunkturasidagi o‘zgarishlarga nisbatan barqarorroq bo‘lib, bandlik darajasi, aholi daromadlari va investitsiya oqimlarining nisbatan barqarorligi bilan tavsiflanadi [2].

Xorazm viloyati iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish nafaqat yangi tarmoqlarni shakllantirish, balki mavjud tarmoqlarda qo‘shimcha qiymat zanjirlarini yaratish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, turizm xizmatlarini rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot elementlarini joriy etish va qayta tiklanuvchi energetika imkoniyatlaridan foydalanishni ham nazarda tutadi. Shu jihatdan, hududning ichki resurslari va geografik xususiyatlarini hisobga olgan holda strategik rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili

Iqtisodiy diversifikatsiya zamonaviy iqtisodiyot nazariyasida barqaror o‘shishni ta‘minlash, iqtisodiy xatarlarni kamaytirish va tarkibiy muvozanatni shakllantirishning muhim vositalaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Mazkur tushuncha iqtisodiy faoliyat yo‘nalishlarini kengaytirish, ishlab chiqarish tarkibini murakkablashtirish, daromad manbalarini ko‘paytirish hamda bir yoki bir nechta tarmoqqa qaramlikni kamaytirishni anglatadi. Ayniqsa, hududiy iqtisodiyotda diversifikatsiya iqtisodiy tizimning moslashuvchanligini oshirish va tashqi bozor tebranishlariga sezgirlikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Diversifikatsiya nazariyasining dastlabki ilmiy asoslari H. Markowitz tomonidan ishlab chiqilgan portfel nazariyasida o‘z aksini topgan. Olimning fikricha, resurslarni turli yo‘nalishlarga taqsimlash orqali umumiy risk darajasini pasaytirish mumkin [3]. Mazkur yondashuv keyinchalik mintaqaviy iqtisodiyotga tatbiq etilib, hudud iqtisodiyotini bir tarmoqqa qaram holda rivojlantirish yuqori xatarli model ekanligi asoslab berildi.

J. Jacobs shaharlar va hududlar iqtisodiyoti bo‘yicha tadqiqotlarida iqtisodiy xilma-xillik innovatsiyalar, bandlik o‘shishi va iqtisodiy faollikning muhim manbai ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, turli tarmoqlarning bir hududda jamlanishi yangi g‘oyalar, texnologiyalar va biznes modellarining paydo bo‘lishiga xizmat qiladi [4]. Mazkur yondashuv ayniqsa urbanizatsiyalashgan hududlar va sanoat markazlari rivojlanishida dolzarb hisoblanadi.

Shuningdek, endogen iqtisodiy o‘shish nazariyasi vakillari P. Romer va R. Lucas iqtisodiy o‘shishda inson kapitali, innovatsiyalar va bilim almashinuvi hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatganlar. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, iqtisodiy diversifikatsiya yangi texnologiyalarni joriy etish va mehnat unumdorligini oshirish uchun qulay muhit yaratadi [5; 6].

Imbs va R. Wacziarg tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda iqtisodiy rivojlanish va diversifikatsiya o‘rtasida U-shaklidagi bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan. Ya’ni iqtisodiy taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida hududlar va mamlakatlar diversifikatsiyaga intiladi, yuqori rivojlanish bosqichiga yetgach esa ayrim yuqori samarali tarmoqlarga ixtisoslashuv kuchayadi [7]. Bu holat rivojlanayotgan hududlar, jumladan Xorazm viloyati uchun diversifikatsiya siyosatining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Hududiy iqtisodiyot bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda “related variety” konsepsiyasi alohida o‘rin egallaydi. Frenken, Van Oort va Verburg fikricha, iqtisodiy jihatdan bir-biriga yaqin, ammo funksional jihatdan turlicha tarmoqlarni rivojlantirish eng samarali model hisoblanadi. Bunday holatda bilim almashinuvi tezlashadi, innovatsion faollik ortadi va iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi [8].

Jahon amaliyotida hududiy diversifikatsiyaning ko‘plab muvaffaqiyatli misollari mavjud. Malayziyaning Penang hududi dastlab oddiy yig‘uv sanoatiga ixtisoslashgan bo‘lsa, keyinchalik elektronika, tibbiy texnologiyalar, logistika va xizmatlar sektorini rivojlantirish orqali yuqori daromadli mintaqaga aylandi [9].

Turkiyaning Gaziantep viloyati esa an’anaviy tekstil sanoati negizida mashinasozlik, plastmassa mahsulotlari, oziq-ovqat sanoati va eksport logistikasini rivojlantirib, mamlakatning yirik sanoat markazlaridan biriga aylandi. Ushbu tajriba geografik jihatdan markazdan uzoq hududlarda ham diversifikatsiya orqali iqtisodiy sakrashga erishish mumkinligini ko‘rsatadi [10].

Markaziy Osiyo davlatlari tajribasida ham ayrim hududlarning tarkibiy transformatsiyasi kuzatiladi. Jumladan, Qozog‘istonning Shymkent hududi sanoat va savdo-logistika yo‘nalishida rivojlangan bo‘lsa, O‘zbekistonning Navoiy viloyati erkin iqtisodiy zona mexanizmlari orqali investitsiyalarni jalb etishda sezilarli natijalarga erishgan [11].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada statistik tahlil, qiyosiy tahlil, SWOT-tahlil, tizimli yondashuv hamda ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari, investitsiya hajmi, YaHM tarkibi, eksport dinamikasi va tarmoqlar kesimidagi ma’lumotlar asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tahlillar va asosiy natijalar

Xorazm viloyatida hududiy iqtisodiy o‘shish jarayonlarini chuqur tahlil qilish uchun, avvalo, so‘nggi yillarda asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Hududning yalpi hududiy mahsuloti hajmi, aholi soni, jon boshiga daromad ko‘rsatkichlari, bandlik darajasi hamda investitsiya oqimlari iqtisodiy rivojlanishning muhim

indikatorlari hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichlarning yillar kesimidagi o'zgarishi hudud iqtisodiyotining real holatini baholash, mavjud tendensiyalarni aniqlash hamda istiqboldagi strategik yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi.(1-jadval).

1-jadval

Xorazm viloyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (2019–2023)¹

Ko'rsatkich	2019	2020	2021	2022	2023
YHM, mlrd. So'm	18 420	20 110	24 680	31 250	38 740
O'sish sur'ati, %	5,4	1,2	6,8	7,1	7,6
Aholi, mln. kishi	1,72	1,76	1,79	1,83	1,87
Jon boshiga YHM, mln. So'm	10,7	11,4	13,8	17,1	20,7
Ishsizlik darajasi, %	8,3	9,1	8,7	8,0	7,4
Tashqi investitsiyalar, mln. USD	48,2	35,6	72,4	98,7	124,3

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2019–2023-yillarda Xorazm viloyatining yalpi hududiy mahsuloti 18 420 mlrd so'mdan 38 740 mlrd so'mga oshgan. Bu hududda iqtisodiy o'sish sur'atlari ijobiy ekanligini ko'rsatadi. Jon boshiga YHM hajmi ham o'sib, aholi farovonligining nisbatan yaxshilanayotganini bildiradi.

Shuningdek, ishsizlik darajasi 8,3 foizdan 7,4 foizgacha kamaygan, tashqi investitsiyalar hajmi esa 48,2 mln dollardan 124,3 mln dollarga yetgan. Bu esa viloyat investitsion jozibadorligi ortib borayotganini anglatadi.

2-jadval

Xorazm viloyati YHMining tarmoqlar bo'yicha tarkibi, % (2023)²

Tarmoq	Xorazm (%)	O'zbekiston o'rtachasi (%)
Qishloq xo'jaligi	29,4	21,5
Sanoat (ishlov beruvchi)	18,2	24,8
Qurilish	10,7	9,3
Savdo va xizmatlar	22,6	26,2
Transport va logistika	6,8	8,1
Turizm va mehmondo'stlik	3,1	2,9
Axborot va kommunikatsiyalar	2,4	4,7
Boshqa sohalar	6,8	2,5

2-jadval natijalariga ko'ra, Xorazm viloyati iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining ulushi 29,4 foiz bo'lib, respublika o'rtacha darajasidan yuqori. Bu hudud iqtisodiyotining agrar yo'nalishga ko'proq tayanayotganini ko'rsatadi.

Sanoat, savdo-xizmatlar, transport va axborot-kommunikatsiya tarmoqlari ulushi esa respublika o'rtacha ko'rsatkichlaridan past. Ayniqsa, IT va kommunikatsiya sohasining sust rivojlanganligi iqtisodiy diversifikatsiya zarurligini bildiradi.

Xorazm viloyatida iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va diversifikatsiyani chuqurlashtirishga to'sqinlik qilayotgan qator omillar mavjud va quyida ular keltirilgan:

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

– viloyatning geografik joylashuvi transport-logistika xarajatlarining yuqoriligiga sabab bo‘ladi. Respublikaning yirik sanoat va iste‘mol markazlaridan uzoqlik mahsulot tannarxiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi hamda eksport imkoniyatlarini cheklaydi [12].

– iqtisodiyot tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushining yuqoriligi hududning ayrim tarmoqlarga qaramligini kuchaytiradi. Bu esa iqlim o‘zgarishi, suv taqchilligi va narxlar tebranishi kabi omillarga sezgirlikni oshiradi.

– sanoat va xizmatlar sektorida yuqori malakali mutaxassislar yetishmasligi inson kapitali bilan bog‘liq muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

– hududga investitsiyalar jalb etish darajasi oshayotgan bo‘lsa-da, ularning katta qismi hali barcha tarmoqlarga yetarli darajada yo‘naltirilmagan. Xususan, innovatsion ishlab chiqarish va yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi sohalarda investitsiya faolligi nisbatan pastligicha qolmoqda.

Shunday qilib, Xorazm viloyatida iqtisodiy diversifikatsiyani jadallashtirish uchun logistika infratuzilmasini yaxshilash, sanoat bazasini kengaytirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda investitsion muhitni takomillashtirish ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Xorazm viloyatida iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish uchun mavjud resurslar va hududiy ustunliklarga tayangan holda diversifikatsiya siyosatini amalga oshirish zarur. Bunda bir nechta istiqbolli yo‘nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Birinchiidan, agrosanoat majmuasini rivojlantirish muhim yo‘nalish hisoblanadi. Viloyatda yetishtirilayotgan meva-sabzavot, paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shimcha qiymat yaratish mumkin. Bu eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi [13].

Ikkinchiidan, turizm va xizmatlar sektorini kengaytirish katta imkoniyatlarga ega. Xiva shahri va boshqa tarixiy-madaniy obyektlar asosida ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, mehmonxona, transport, savdo va servis xizmatlarini kengaytirish hudud iqtisodiyotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Uchinchiidan, tekstil va yengil sanoatni rivojlantirish istiqbolli yo‘nalishdir. Mahalliy xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish orqali paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash hamda eksportbop mahsulotlar hajmini oshirish mumkin.

To‘rtinchiidan, qayta tiklanuvchi energetika salohiyati yuqori. Quyoshli kunlar sonining ko‘pligi sababli quyosh energetikasi loyihalarini kengaytirish hududning energiya ta‘minotini mustahkamlaydi va yangi investitsiyalarni jalb etadi [14].

Beshinchiidan, raqamli iqtisodiyot va IT-xizmatlarni rivojlantirish zarur. Bu yo‘nalish geografik uzoqlik muammosini kamaytirib, yoshlar bandligini oshirish va zamonaviy biznes muhitini shakllantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, Xorazm viloyati uchun diversifikatsiyaning asosiy drayverlari sifatida agrosanoat, turizm, tekstil, energetika va raqamli iqtisodiyot yo‘nalishlari ustuvor ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Xorazm viloyatida iqtisodiy o‘shishni barqaror ta‘minlashda iqtisodiy diversifikatsiya muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. Hudud iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi ulushining yuqoriligi, sanoat va xizmatlar sektorining nisbatan sust rivojlanganligi tarkibiy islohotlarni jadallashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlillar asosida viloyatda agrosanoat majmuasi, turizm, tekstil sanoati, qayta tiklanuvchi energetika hamda raqamli iqtisodiyot yo‘nalishlari iqtisodiy o‘shishning asosiy

drayverlari bo‘lishi mumkinligi aniqlandi. Mazkur tarmoqlarni kompleks rivojlantirish yangi ish o‘rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish, investitsiyalarni ko‘paytirish hamda aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Xorazm viloyatining tabiiy, iqtisodiy va madaniy salohiyatidan samarali foydalanish asosida diversifikatsiyalashgan iqtisodiy modelni shakllantirish hududning uzoq muddatli raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. – Toshkent, 2022.
2. Toshmatov N., Yusupov M. Hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning metodologik asoslari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2021. – №3. – B. 45–58.
3. Markowitz H. Portfolio Selection // *The Journal of Finance*. – 1952. – Vol. 7, No. 1. – P. 77–91.
4. Jacobs J. *The Economy of Cities*. – New York: Random House, 1969. – 268 p.
5. Romer P.M. Endogenous Technological Change // *Journal of Political Economy*. – 1990. – Vol. 98, No. 5. – P. S71–S102.
6. Lucas R.E. On the Mechanics of Economic Development // *Journal of Monetary Economics*. – 1988. – Vol. 22, No. 1. – P. 3–42.
7. Imbs J., Wacziarg R. Stages of Diversification // *American Economic Review*. – 2003. – Vol. 93, No. 1. – P. 63–86.
8. Frenken K., Van Oort F., Verburg T. Related Variety, Unrelated Variety and Regional Economic Growth // *Regional Studies*. – 2007. – Vol. 41, No. 5. – P. 685–697.
9. World Bank. *Malaysia Economic Monitor: Transforming Urban Transport*. – Washington, D.C.: World Bank, 2022.
10. OECD. *Regional Development Policy in Turkey*. – Paris: OECD Publishing, 2021.
11. Asian Development Bank. *Uzbekistan: Regional Economic Development Review*. – Manila: ADB, 2023.
12. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. *Hududlar logistika infratuzilmasi holati bo‘yicha hisobot*. – Toshkent, 2022.
13. FAO. *Agricultural Value Chains in Central Asia*. – Rome: FAO, 2021.
14. International Energy Agency. *Renewable Energy Outlook for Central Asia*. – Paris: IEA, 2023.